

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan

MA'LUMOT

(10-14 – aprel)

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoni (**99 353 93 54**)ga 10-14-aprel kunlari **211 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligidan kelgan "sms" xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og'zaki murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoniga hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e'tirozli 5(2,4%)ta og'zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Bolalar milliy tibbiyot markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan **3 nafar bemorlar** shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan hamda o'z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi yuzasidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemor shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan;

Samarqand viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemor shifokorlar qarovidan **noroziligini bildirib** Jamg'armaning ishonch telefoniga fuqarolar **og'zaki murojaat qildilar.**

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas'ullariga va hududiy bosh mutaxassislarga telefon orqali murojaatchilarning ma'lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas'ullariga bemorlar e'tirozi o'rinliligi yuzasidan tushuntirildi, og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi

Matbuot xizmati.